

PEDAGOGIK JARAYONLARDA O'QITUVCHI VA TALABALAR O'RTASIDA YUZAGA KELUVCHI NIZOLARNING OLDINI OLISH – TA'LIM JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISH OMILI

Tosheva Dildora Iskandarovna

*Buxoro davlat pedagogika instituti
pedagogika kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD)*

toshevadildora@buxdpi.uz

Ergashev Xolmurod Elmirodovich

*Buxoro davlat pedagogika institutining
2- bosqich magistranti*

Annotatsiya. Maqolada Oily ta'lim jarayonida talaba-o'qituvchi o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni oldini olish, bartaraf etish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilib, amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: konflikt, nizo, pedagogik inqiroz, kasbiy tanglik o'qituvchi, talaba, pedagogika, tarbiya.

Абстрактный. В статье особое внимание уделяется повышению эффективности образования путем предотвращения и устранения конфликтов между учащимися и преподавателями в образовательном процессе, а также даются практические предложения и рекомендации.

Ключевые слова: конфликт, конфликт, педагогический кризис, профессиональная напряженность, учитель, студент, педагогика, образование.

Abstract. In the article, special attention is paid to increasing the effectiveness of education by preventing and eliminating conflicts between students and teachers in the High education process, and practical suggestions and recommendations are given.

Keywords: conflict, dispute, pedagogical crisis, professional tension teacher, student, pedagogy, education.

Kirish: Jamiyatda kasblar juda ko'p, kasblar ichida pedagoglik kasbi o'ziga xosdir. Biror kasbning haqiqiy ustasi bo'lish uchun kishida tabiiy qobiliyat,(kirishimli bo'lish, intellektual xususiyatga egalik), ma'lum jismoniy, va ruhiy islohatlar,(xarakteri, xotirasi, diqqat, sezgi, psixologik muvozanatga egalik), puxta tayyorgarlik(kasbiy-

metodik bilimdonlik), shaxsiy tayyorgarlik va ayrim shaxsiy sifatlar bo'lishi kerak. Pedagogik maqsadga yo'naltirishda qanday munosabatlarga e'tiborimizni qaratishimiz kerak. Pedagoglik kasbini tanlagan kishi avvalo sog'lom bo'lishi, so'zlarni to'g'ri va yaxshi talaffuz qila olishi, bosiq, asablari joyida bo'lishi, boshqalar bilan muomolada o'zini tuta olishi zarur. Shuningdek, bolalalarni yoqtirishi ular bilan ishonch bilan ishlashga mayli borlik, xushmuomalalik keng fikrlay olish tashkilotchilik, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik kabi shaxsiy sifatlar mavjudligi ham kishining pedagogik ishga yaroqligini ko'rsatadi.

Pedagog o'z maqsadiga erishishi uchun munosabatga talabalar bilan kirishi uchun quyidagi sifatlarga ega bo'lishi lozim. Talabani hurmat qilishi va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevish, psixologik va pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik tashkilotchilik qobiliyati, dilkashlik, talabchanlik, qat'iylik va maqsadga intilish, vazminlik o'zini tuta olish. Pedagog pedagogik maqsadga yo'naltirilgan munosabat jarayonida talabalarni xarakter xususiyatlariga ham alohida e'tiborini qarata olishi lozimdir.

Maqsadga erishishga birgalikda intilish ta'lim sohasida biz maqsadga erishimiz uchun albatta birgalikda intilishimiz lozimdir. Ta'limni tashkil etuvchi xodimlar bu pedagoglardir shunday ekan ta'limni samarali amalga oshishida kimlar bilan birgalikda ishlashimizga bog'liqdir, pedagoglik kasbida maqsadga erishish uchun o'qituvchining faqat bilimdon bo'lishi, u yoki bu fanini chuqur bilishining o'zi yetarli emas. U talabaning induvidual va ruhiy xususiyatlarini e'tiborga olib biror fanni qay darajada, qanday usullar bilan o'rganishni hamda , ularga qanday ta'sir ko'rsatishni, inson shaxsining shakllanish qonunniyatlarini ham bilishi zarur.

Pedagog jamoa bilan ishlashni bilishi, guruh talablariga to'g'ri munosabatni shakllantirgan holda sog'lom muloqot muhitini shakllantirishi, ota-onalar bilan ishlashi tyutor vazifasini amalga oshirishida ish tizimini maqsadli shakllantirishi lozim. Ota-onalar bilan ishlash tyutordan pedagogik nazokat, chidam, izchil va qat'iy e'tiborini talab qiladi. Tarbiyaning umumiy vazifalari ota-onalar jamoasi orqali muvoffaqiyatli hal qilinadi. Tyutor tarbiyasi qiyin talabaning ota-onalari yoki yaqin oila a'zolari bilan yakka tartibda ishlashda pedagogik mahoratga

tayangan holda kommunikativ aloqani o'rnatishi maqsadga muvofiqdir..

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ta'lim-tarbiya jarayoni pedagog va talabalar o'rtasidagi munosabatdir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev takidlagannidek "Jamiyatda o'qituvchi kasbi eng nufuzli va obro'li kasb bo'lishi lozim" Bugungi kunda o'qituvchi jamiyatning ustuni sifatida qaralmoqda va hukumat tomonidan ularga imtiyoz va imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Bu imkoniyatdan foydalangan har qanday pedagog kasbiy muvoffaqiyatga erishadi. Birovni o'qitadigan tarbiya qiladigan inson avvalo o'zi har tomonlama barkamol bo'lmog'i lozim. [1]

Ta'lim-tarbiyaning samarasi hamda ta'sirchanligi, avvalo, o'qituvchiga, uning intellektual salohiyatiga, kasbiy tayyorgarligiga va pedagogik mahoratiga bog'liq. O'qituvchi ijodiy fikrlovchi, ya'ni umuminsoniy va milliy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan bo'lishi, o'z kasbi va bolalarni yaxshi ko'radigan insonparvar, adolatli, talabchan, odobli, har bir o'quvchisi ulg'ayib kelajakda komil inson bo'lishiga ishonadigan, ularning barkamol shaxs, ishbilarmon kishi bo'lib yetishishiga ko'maklashadigan mutaxassis bo'lmog'i lozim. Pedagogik konfliktni yuzaga

keltirmasligi uchun o'qituvchi nozik psixolog va mohir pedagog bo'lishi lozim. Pedagog nazariy bilimlari va pedagogik sezgirligi vositasida o'qituvchilar va talabalar bilan oson aloqaga kirishadi, ta'lim muassasasida va undan tashqarida birgalikdagi faoliyatni mohirlik bilan uyushtiradi, tarbiyalanuvchining fikri, tuyg'usi va irodasini bevosita va bilvosita boshqarish san'atini egallagan bo'ladi. Tarbiyalanuvchi muomala odobini asosan tarbiyachi timsolida anglab oladi. Ustoz tarbiyalanuvchi uchun bir umrga sevimli, ideal, ibrat, namuna bo'lib qolishga muyassar bo'lmog'i lozim. Pedagogik konfliktlarning kelib chiqish sabablari guruhdagi har bir shaxsning fe'l-atvoridagi xatti-harakatlariga shaxsga mansub bo'lgan millat, xalq va hudud xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

Ta'lim va tarbiya ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lganligi sababli o'qituvchi va talabalar orasida ayrim kelishmovchiliklar sodir bo'lib turadi. Kelishmovchiliklarning oldi olinmasa nizoga aylanadi. Shuning uchun ham ta'lim muassasalarida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi nizolarni bartaraf qilish ko'pchilik pedagog va psixolog tadqiqotchilarni qiziqtirib kelmoqda. Ta'lim muassasalarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolarni, ya'ni

konfliktologik kayfiyat va xususiyatlarni o'rganish jamiyatdagi inqirozlarning kelib chiqishi va ijtimoiy to'qnashuvlarning oldini olishga ko'mak beradi. Bugungi kunda jamiyatimizda paydo bo'layotgan nizolar ichida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolar eng murakkab va dolzarb muammoga aylanmoqda. O'quvchilarning o'qituvchilarining metodik tayyorgarligiga bo'lgan e'tirozlari ko'pincha to'g'ri bo'lib chiqadi. ***O'quvchilarning bu sohadagi e'tirozlari quyidagicha:*** -tushuntira olmaslik; - sistemasiz, palapartish bayon; - tilning o'rinsiz murakkabligi; - takrorlashning yo'qligi; - materialni quruq bayon qilish; - mavzuni hayot bilan bog'lay olmaslik; -xo'ja ko'rsinga "mavzuni" bajarish; -predmetga qiziqish uyg'ota olmaslik; -xolis baholay olmaslik; -arzimagan javobga yuqori baho qo'yish; -barcha o'quvchilarga faqat "3" baho qo'yish va hokazo. Bunday munosabatlar pedagogik konfliktlarga sabab bo'ladi.

Muhokama va natijalar. Pedagogik konfliktlar ziddiyatlarni, to'qnashuv, qarama-qarshilik mojarolarni pedagoglar va o'quvchilar o'rtasida yuzaga kelmasligi uchun o'qituvchi ziddiyatlarini olidini ola bilishi lozimdir. Zamonaviy tarzda biz konfliktlarni boshqarishimiz ziddiyatlarni munosabatlarini to'g'ri

yechemini topishimiz kerak. Zero birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: "Ilm-ma'rifat biz uchun bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, yo'qolmaydi ham. Aql zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erisha olamiz. Mustaqil O'zbekistonning kelajagi bo'lgan sog'lom avlodni tarbiyalash nozik, nihoyatda katta diqqat e'tiborni talab qiladigan, jarayondir. [2] Shunday ekan o'qituvchi, o'quvchi va talabaning shakllanish jarayonini zo'r havas va sinchkovlik bilan kuzatish lozim. Jamiyatimizda turli xil xarakterdagi shaxslarni uchratishimiz mumkin. Shaxslararo konfliktlar, albatta, faoliyat turlarida namayon bo'ladi. O'qish faoliyatida, mehnat faoliyatida va oila muhitida.

Pedagogik konfliktlarning yechish va boshqarish muloqot jarayoniga bog'liqdir. Muloqotdagi ziddiyat shakllari turlichadir. Masalan yuzma-yuz yoki texnik vositalar (telefon telegraf va shunga o'xshash vositalar) bilan amalga oshiriliadi.

O'zaro munosabatlarga kirishilganda konfliktni yuzaga kelmasligini asosiy sabablari, o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy, qiyofasi, fazilatlar, hattoki nuqsonlari ham

muloqot jarayonlarining mahsulidir. Har qanday muloqotlarning elementar funksiyasi suhbatdoshining o'zaro bir-birini tushunishlarini ta'minlashdir. Pedagogik konfliktlarni oldini olishda gaplashayotgan odamlar biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir-birini to'ldirishga bog'liq ekan noto'g'ri tasavvurlardan biri shuki, odamni muomola yoki muloqatga o'rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so'zlardan foydalanib ta'sirchan gapirishga o'rgatishadi.

Uning ikkinchi tomonitlash qobiliyatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi "yaxshi suhbatdosh –yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir" deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi.[3]

Pedagogik muloqot o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro muloqot jarayoniga aytiladi. Pedagogik jarayondagi aloqalar tizimida o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi muomola –munosabatlar katta o'rin egallaydi.

O'qituvchi talaba bilan hayotiy va fan nuqtayi nazaridan muloqotni amalga oshiradi bu unga

kasbiy ko'nikmani shakllantirishda va do'stona munosabatni shakllanishida xizmat qiladi. O'qituvchining biror tasodifiy xatti-harakati natijasida talabalarda u haqda sodir bo'lgan fikr ham ta'lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir etishi, o'qituvchining ishini murakkablashtirishi mumkin. Odatda, bunday ziddiyatlar uzoq davom etadi va o'qituvchi foydasiga hal etiladi. O'qituvchi obro'sini saqlayman deb, kattalar ba'zan talabaning qadr-qimmatini yerga uradilar, talabadan kechirim surashni talab etadilar, vaholanki bu nizoga o'qituvchining noto'g'ri xatti-harakati sabab bo'lgan.

O'qituvchining ishi axloqiy tarbiya talablariga to'g'ri kelmaydi. Talaba bilan muomola va munosabatlarda ularning har biriga alohida yondashish lozim. Agar o'qituvchi va talaba bir-birini tinglasa, o'z-o'zini ham tarbiyalaydi. Demak, tinglash jarayoni ko'pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas. tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar g'oyalarning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ma'ruzachi professorning har bir chiqishi va ma'ruzasi agar talabalar tomonidan diqqat bilan tinglansa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yutadi.

Pedagogik oliy ta'lim va pedagogik ilmiy tadqiqotlar sohasida Sharq va G'arb mamlakatlari bilan aloqa o'rnatish ta'lim jarayonidagi nizolarni aniqlash va ularni tahlil qilish quyidagicha amalga oshiriladi:

-xorijiy mamlakatlardagi pedagogik o'quv va ilmiy tadqiqot markazlari bilan aloqa o'rnatish.

- pedagogik muammolarni tadqiq qilishda hamkorlikni yo'lga qo'yish.

- o'qituvchilar, aspirantlar, doktoratlarni ilmiy va pedagogik faoliyatga tayyorlash sohasida hamkorlik qilish.

- pedagogik muammolar bo'yicha xalqlararo seminarlar, konfrensiyalar o'tkazish.

- pedagogik ta'lim va pedagogika fani sohasida informatsiyalar almashish, maktablar, pedagogika o'quv yurtlarining o'quv rejalari, o'quv dasturlari, darsliklar metodik qo'llanmalarni o'zaro almashishi. Pedagogik konfliktologiya metodikasi o'qituvchi madaniyatini rivojlantiradi. Metodika o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ziddiyatlarni hal etishda foydalaniladi.[3]

Ta'limni insonparvarlashtirishning asosiy yo'nalishlari ta'lim oluvchilarning qobiliyat va iste'dodlarini har tomonlama ochish va milliy umumbashariy g'oyalar hamda qadriyatlarni singdirish

shaxs jamiyat va atrof munosabatlarini yaqinlashtirish, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi aloqa sarmazmun an'ana "ustoz-shogird" munosabatlarini yaxshilashdan iboratdir. Bolalarga oliyjanob munosabat. Insondagi eng yaxshi fazilatlarini biri samimiylikdir deyarli kun ora ishlatiladigan bu so'zning ma'nosiga ko'pincha e'tibor bermaymiz. Aslida arab tilida o'zlashtirilgan samimiyat, samimiy so'zlarini o'zbekchaga o'g'irganimizda "boshqalar gapini tinglaydigan hamfikir bo'la oladigan, xabardor" degan ma'nolar chiqadi. Odob axloqning yaxshilik deb nomlanuvchi biri bo'lgan samimiylik katta tushancha. Samimiyat kishilarning o'zaro munosabat va muloqatida yuzaga chiqadi.

Xulosa. Pedagogik konflikt bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ziddiyatlarni, kelishmovchiliklar tortishuvlar konfliktlar, muloqot jarayonida bir-birlarini tushunishlari, bir-birini idrok qilishlarini o'rganadi, albatta, o'qituvchi bu muammolarni oldini olishi va yechimini topishi uchun o'z mutaxassisligini puxta o'rgangan, muloqot sirlaridan xabardor bo'lishi, darsni tashkil etish bilan birgalikda talabalarni jalb qila olishi kerakdir. Bundan tashqari talabalarni bilim saviyasini va xulq-atvoriga xolisona baho berishi lozim Mahmud

Qoshg'ariy o'z asarida quyidagi fikrlarni bildiradi- kishilarni tana a'zolari kasalliklari kasallanganida yuzlarcha minglarcha kishi halok bo'lishini, ruhiy bilimsizlik o'quvsizlik yuz minglarcha, o'n minglarcha shaxslar halok bo'lishini aytadi va bu kasallikni oldini olishda men o'qituvchilik kasbi orqali erishdim, degan fikrlarni bildirib o'tgan. Shunday ekan bo'lajak pedagoglar pedagogik nizolarga uchramasliklari, pedagogik

nazokatni shakllantirishi, kasbiy etikaga rioya qilishi lozim. Unda pedagogik konfliktlarni bartaraf etadigan bilim bo'lishi kerak. Nizolarni bartaraf etish uchun tarbiyaviy ta'sirni oshirish maqsadida pedagogik va psixologik choralarga e'tibor berish, aniq pedagogik vazifalarni inobatga olish, o'quvchi shaxsining psixologik xususiyatlari va uning imkoniyatlari hamda mazkur psixologik holatlarni hisobga olish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Sh.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T: O'zbekiston -2017.491b
2. I.A. Karimov Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch T.M'anaviyat -2008 y.108b
3. O'.U. Qurbonova, D.I.Tosheva Pedagogik konfliktologiya o'quv qo'llanma. Durdona nashriyoti.B:2021.300b.126-184b